



O'QUVCHI SHAXSINING TARKIB TOPISHIDA TAFAKKUR SHAKLLARINING AHAMIYATI

Nodira Tashpulatova Xudjamuradovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7337566>

ARTICLE INFO

Received: 10th November 2022

Accepted: 18th November 2022

Online: 19th November 2022

KEY WORDS

Mantiqiy tafakkur, bilish jarayoni, tashqi belgilar, konkret alomatlar, bilimlar sistemasi, amaliy mashqlar, o'quv ko'nikmalari.

ABSTRACT

Ushbu maqola ta'lim jarayonida o'quvchilar bilimlar sistemasini, o'quv ko'nikmalari va malakalarini egallash orqali o'zlarining bilim fondlarini, bola taffakurrining rivojlanish xususiyatlarini, uning qonuniyatlarini, hamda amalda qo'llanilayotgan amaliy mashqlar to'g'risida yoritilgan. Ta'lim jarayonida o'quvchilar bilimlar sistemasini, o'quv ko'nikmalari va malakalarini egallash orqali o'zlarining bilim fondlarini ko'paytiradilar, shuning bilan birga ilmiy tushunchalarning tub ma'nosi ular ongiga singa boradi.

O'quvchilar tafakkurining rivojlanishini yirik rus psixologi Vigotskiy L.S. tushunchalarning shakllanishi hamda nutqning o'sishi bilan uzviy bog'liq holda o'rgangan. Shuning uchun u ajnabiy psixologlarning (birinchi navbatda J. Piajening) egotsentrik nutq konsepsiyasini qattiq tanqid qilib, tafakkurni genetik metod orqali o'rganishni tavsiya qiladi. Vigotskiy L. S. Psixologiya faniga inson kamolatining "eng yangi taraqqiyot zonasi" va "aktual faoliyat zonasi" deb nomlangan tushunchalarni olib kirdi. Uning birinchisi o'qituvchining bevosita rahbarligi ostida amalga oshirilsa, ikkinchisi o'quvchining mustaqil faoliyatida namoyon bo'ladi. Bola maktabga kelgan kundan boshlab, ta'lim jarayonida unda ilmiy tushunchalar va tasavvurlar miqdori soat sayin orta boradi, u asta-sekin o'zlashtirayotgan tushuncha va tasavvurlarning asl ma'nosi, mohiyatiga tushuna boshlaydi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar bilimlar sistemasini, o'quv ko'nikmalari va malakalarini egallash orqali o'zlarining bilim fondlarini ko'paytiradilar, shuning bilan birga ilmiy tushunchalarning tub ma'nosi ular ongiga singa boradi. Bu ishlarning hammasini izchillik bilan ketma-ket, bir tekis amalga oshirish uchun o'quvchilar ma'lum darajada bilimlar va ko'nikmalarni egallagan, qolaversa tafakkur formalari va mantiqiy mantiqiy tafakkur qoidalarini o'zlashtirib olgan bo'lishlari kerak.

Ammo maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan bolaning bu narsalardan talabga javob beradigan darajada xabari bo'lmaydi. Ular bu narsalarning barchasiga o'qish jarayonida bevosita o'qituvchi raqbarligi ostida erisha boshlaydilar.

O'quvchilarda ilmiy tushunchalarni to'g'ri tarkib toptirish uchun o'qituvchi bola taffakurrining rivojlanish xususiyatlarini,



uning qonuniyatlarini puxta anglab olgan bo'lishi kerak. Mantiqiy tafakkur operatsiyalarining psixologiya asoslari va mexanizmlarini bilmasdan turib, u bo'larni o'quvchilar ongiga singdira olishi mumkin emas.

O'quvchilari buyumlarining o'ziga beixtiyor tortuvchi tashqi belgilariga tayanib mantiqiy tafakkurni amalga oshiradilar: o'quvchi quyosh, momaqaldiraq, sigir, avtomobil, qush va boshqa narsalar to'g'risida mantiqiy tafakkuri davomida "quyosh yoritadi, isitadi...", "momaqaldiraq guldiraydi, chaqmoq chaqnaydi", qush sayraydi" deya mulohaza yuritadi. Ularning har turli "sigir sut beradi", "avtomobil yuk tashiydi", "qushlar buyum va narsalar to'g'risidagi muhokamalarida dastavval ana shu narsalarning xilma-xil harakatlari va ularga nisbatan bo'lgan harakatlar vujudga keladi.

Bilish jarayoni ko'pincha tashqi belgilarga, konkret alomatlariga qaratilgan bo'ladi. Ana shuning uchun kichik maktab o'quvchilari oldida murakkab vaziyat yuzaga kelib turadi. Unday holatdan chiqish uchun ularning aqliy imkoniyatlari, turmush tajribalari yetishmaydi.

Bolaning fikrini biror narsaga yo'naltirish va uni o'sha narsa haqida o'ylashga erishish uchun uning fikrini konkret bir narsaga yo'naltirish, uning oldiga hal qilinishi lozim bo'lgan aniq bir masalani qo'yish va unga javob topish uchun ehtiyoj paydo qilish kerak. Bunda o'quvchilar fikrini muayyan tomonga yo'naltiruvchi aniq vazifalar belgilab berishning ahamiyati kattadir. Bola oldiga qo'yiladigan aniq savol va vazifalar uning miyasidagi bog'lanishlarni aktivlashtiradi va ularning yo'nalishiga ta'sir qiladi. Bola fikrini aktivlashtirishda hayratda qolish, taajublanish, shubha singari hislarning

ahamiyati ham kattadir. Bolada tug'iladigan ajablanish tafakkur jarayonlarini aktivlashtiradi.

O'quvchilar ta'lim jarayonida qator ilmiy tushunchalarni o'zlashtirib olsalar-da, lekin o'tgan darslarda o'zlashtirilgan turli belgilar bilan qorishtirib, chalkashtirib yuboradilar. Shuningdek, ular ilmiy tushuncha bilan turmushda iste'mol qilinadigan tushunchalar o'rtasidagi o'xshashlik va farqni to'la ajratib ololmaydilar.

O'quvchilarning tafakkuri quyidagicha rivojlantirilsa, u holda samarali natijalar berishi mumkin.

O'quvchining "Bu nima?", "nega bunday?" degan savollariga o'zi javob berishga o'rgatish kerak. Bu o'rinda asosiy vazifa unga to'g'ri ko'rsatma berish, uni mantiqiy xatolardan qutqarish, to'g'ri mulohaza yuritishga ko'maklashishdan iboratdir. Masalan: To'rt tayoqchadan to'rtburchak yasa-chi? Meva xususiyatini so'zlab ber-chi? Yirtqich hayvonlar qanaqa bo'ladi? Eshitgan chshpchagingizdagi odamlarni sanab ber-chi? va boshqalar.

Fan va texnika revolyutsiyasi avj olingan hozirgi davrda kishilarga uzatilayotgan informatsiyalarning ma'lum qismi abstrakt holatda inson ma'naviy mulkiga aylanmoqda. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, inson, ko'pincha, jamiyat formatsiyalarini o'rganish davrida, ularning avvalgi mohiyatini keyingi formatsiyani o'rganish paytida yanada chuqurroq va puxtaroq egallab oladi. Inson butun hayoti davomida turli masalalarga va muammolarga ro'baro' keladi va ularni yechimini izlashda u tafakkurning turli qirralaridan foydalanadi.

Ba'zida esa biron bir holat, muammo yoki masalani bir necha xil yo'llar bilan hal etish mumkin. Bunday holatda ham inson o'z tafakkuriga tayanib o'ziga qulay



yechimlardan birini tanlaydi. Insonning masalalar yechimida qaysi yo'llardan foydalanishini o'rgangan holda, uning tafakkurining qay bir turi yaxshiroq rivojlanganligini aniqlash mumkin.

O'quvchilar shaxsini mustaqil fikrlashini shakllantirish usullarini va o'quvchi shaxsining tarkib topishida tafakkur shakllarining ahamiyati va o'quvchilarida mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning o'ziga hos hususiyatlarini tahlil qilib maktabda o'quvchilar o'rtasida olib borilgan tadqiqot ishlari bo'yisha quyidagicha xulosaga keldik.

O'quvchilarni jipslashtirish va ularni o'qituvchi bilan fikrdosh bo'lishiga erishish o'qituvchidan nafaqat chuqur kasbi bo'yicha bilimga ega bo'lishni balki psixologik bilim asoslarini to'g'ri qo'llay bilishni talab qiladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning mantiqiy tafakkuri ularning egallagan bilimlari evaziga, anglashilganlik xususiyatining majudligidan oddiy formadan asta-sekin murakab formaga o'sib o'tadi. Ammo ushbu ichki murakab jarayon bir talay qiyinchiliklarni yengish tufayli namoyon bo'ladi. Sistemali bilimlarni egallashga qaratilgan mantiqiy tafakkur har qanday qiyinchiliklarni yengishga yetaklaydi.

Tafakkurning shakllarini o'stirish o'quvchilarni kamol toptirishning garovidir. O'quvchilarida tafakkur shakllarini tarkib toptirishning psixologik asoslari nomli mazkur bitiruv malakaviy ishi barcha oliy o'quv yurtlarida, malaka oshirish kurslarida, o'qitish texnologiyasida ko'zda tutilgan sharoitlar va vaqti mavjud bo'lgan "Psixologiya" o'quv kursini olib borishda o'qituvchi tomonidan o'rganilishi mumkin. Ta'lim maktabda beriladigan bilimlarni o'zlashtirish jarayonida kuzatuvchanlik, xotira va xayol

o'sib borishi bilan maktab yoshidagi bolalar tafakkuriga material bo'ladigan narsalar doirasi kengayib boradi.

Bolalarda mantiqiy tafakkur va tanqidiy fikrlash o'sib boradi. Ta'lim jarayonida tafakkur katta o'sish yo'lini konkret tafakkurdan abstrakt-nazariy tafakkurga o'tish yo'liga o'tadi. O'quvchilar muhokama yuritish yo'li bilan to'g'ri xulosalar deduktiv induktiv xulosalar chiqarishni o'rganadilar. Kichik maktab yoshi o'quvchilari mantiqiy tafakkurida alohida obrazlarga suyanib mulohaza yuritish, ya'ni konkret tafakkur abstrakt tafakkurdan ma'lum darajada ustun turadi.

Shuning uchun o'qituvchi dars jarayonini o'quvchilarni tafakkur shakllarini shashakllanishiga qaratadi. Bundan tashqari, ularning bilishiga qiziqishi, bilim fondi ortadi, bilimlar sistemalashib boradi, ayniqsa, aqliy faoliyatni, mustaqilligi rivojlanadi va takomillashadi.

Hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biri o'quvchilarda tafakkur shakllarini dars jarayonida va darsdan tashqari vaqtlarda keng jamoatchilikka suyangan holda o'stirishdan iboratidir. Shunday qilib ta'lim jarayonida turli fanlarning o'qitilishi tufayli, keng ko'lamdagi bilim sistemasining o'zlashtirilishi orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkur jarayonining aktivligi, mustaqillig, mazmundorligi, mahsuldorligi kabi sifatlari rivojlanadi va uning ijodiy, nazariy formalari yanada o'sadi.

Shu sababli, voqelikni ichki bog'lanishlari, munosabatlari, jamiyat taraqqiyot qonunlarini bilish va anglash uquvi yuqori taraqqiyot pog'onasiga ko'tariladi. Mustaqil fikr yuritish metodikasi va texnikasi vujudga keladi, bilim olish ko'nikmasi paydo bo'ladi. Ularning barchasi



o'spirinlarda tafakkurning o'sishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Ta'lim jarayonini oluvchilarning mantiqiy tafakkur jarayonini ta'minlovchi shart-sharoitlarni yaratuvchi qulay usul va shakllarni tanlash va qo'llay olish orqali amalga oshiriladi. mustaqil fikrlashga, mantiqiy mulohaza yuritishga muammolar, topshiriqlar, masalalar, ularni yechish (hal qilish) uchun hech qanday maxsus bilimlar talab qilinmaydi, lekin bunda ma'lum darajada ijodkorlik ko'rsatish, hayotga murojaat etish, mantiqiy mulohaza yurita olish imkoniyati taqozo qilinadi, ularning ba'zilari matematik xususiyatli, boshqalari esa faqat mantiqiy boshqotirma shaklida havola etiladi.

O'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga o'rgatish uchun muammoning ma'noviy, shakliy, tuzilmaviy jabhalarini hisobga olgan holda quyidagilarga diqqate'tiborni yo'naltirish maqsadga muvofiq:

— savollari aniq qilib berilmagan muammolar, masalalar, topshiriqlarda ular o'rtasidagi bog'liqliklar, aloqalar,

munosabatlar o'quvchi tomonidan tahlil qilingandan keyin ifodalab beriladigan savollarning variantlaridan biri qavs ichida ko'rsatiladi;

— bir necha yo'l bilan, usul bilan, bosqich bilan yechiladigan, hal qilinadigan, bajariladigan muammo, masala, topshiriq, bu o'rinda turli masalalar (muammolar, topshiriklar) beriladi, bunda yechimning eng qulay, oddiy, eng tejamli, omilkor yo'li iloji boricha yashiringan holda havola etiladi, muammolar fikrlashning bir usulidan ikkinchisiga, bir oddiyroq hukmdan murakkabrog'iga, bir xulosadan uning alohida ko'rinishlariga, shakllariga o'tish o'quvchi aqliy qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan bo'ladi;

— mazmun va mohiyati o'zgarib turadigan muammolar, masalalar, topshiriqlar, ularda ham bitta mustahkamlangan aqliy xatti-harakatlardan boshqasiga o'tishdan iborat aqliy qobiliyat tarkib toptirishga yo'naltiriladi, ya'ni ularni yangi vaziyatga, ob'yektga ko'chish jarayonida foydalanishga o'rgatiladi.

References:

1. Xalilov M.X. Oila psixologiyasi. SamDU nashri, 1998.
2. Xalilov M.X. Bilish jarayonlari psixologiyasi. SamDU nashri, 1999.
3. ЧНуприкова N. Psixika soznanie kak funktsii mozga. M., Musl, 1985.
4. Xerbakov A.I. Praktikum po obxey psixologii. M., Prosvexenie, 1990.
5. Goziev E. Intellekt psixologiyasi. T., O'qituvchichi, 1996.
6. Goziev E. Va b. Psixologiya muammolari. T., O'qituvchichi, 1996.
7. Goziev E. Psixologiya. T., O'qituvchichi, 1994.
8. Toshpo'latova, N. (2021). СНЕТ ТИЛИ FANLARINI O'QITISHDA O'QUVCHINING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH USULLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (2).
9. Toshpo'latova, N. (2021). ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ РАЎБАРИНИНГ МУЛОҚОТИ ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (3).
10. Toshpo'latova, N. (2022). ЎСМИРЛИК ДАВРИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИНИ ҲИСОБГА ОЛГАН ҲОЛДА ЁНДОШУВНИНГ АҲАМИЯТИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(3).



11. Toshpo'latova, N. (2022). ЎСМИРЛАРДА САЛБИЙ ХУЛҚ АТВОРЛАРНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШ САБАБЛАРИ ВА УНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ИМКОНИАТЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(3).
12. Toshpo'latova, N. (2022). OILADA MA'NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONALARNING VAZIFALARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(5).
13. Toshpo'Latova, Nodira Xudjamuradovna (2022). O'QUVCHILAR TAFAKKUR XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL USULLARNING O'RNI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (2), 701-706.
14. Toshpo'latova, N. (2021). YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA-O'QUVCHILAR RUHIYATINI HISOBGA OLISH. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).
15. Qarshiboyeva, G. Ҳаётни севиб яшанг!. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-48.
16. Qarshiboyeva, G. Психологик маслаҳат. Архив Научных Публикаций JSPI.